

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**FAZLIDDINOV XURSHID ABDIVAFO O‘G‘LI**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MEHNAT QUROLLARI  
NOMLARINING KOGNITIV, DERIVATSION TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)  
in Philology**

**Fazliddinov Xurshid Abdivafo o‘g‘li**

Ingliz va o‘zbek tillarida mehnat qurollari nomlarining kognitiv, derivatsion tadqiqi ..... 3

**Fazliddinov Khurshid Abdivafo ogli**

Cognitive, derivational study of the names of labor tools in English and Uzbek... 25

**Фазлиддинов Хуршид Абдивафо угли**

Когнитивное, деривационное исследование названий орудий труда в английском и узбекском языке ..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 52

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**FAZLIDDINOV XURSHID ABDIVAFO O‘G‘LI**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MEHNAT QUROLLARI  
NOMLARINING KOGNITIV, DERIVATSION TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2025.1.PhD/Fil5806 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus, (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.samdhti.uz](http://www.samdhti.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xalimova Furuza Rustamovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Abdullayeva Nargiza Erkinovna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "5" iyun 2026-yil 10.00 kuni majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: [info@samdhti.uz](mailto:info@samdhti.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (63165 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "21" may kuni tarqatildi.  
(2026-yil "21" may kuni, 36 raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.Z. Nasrullayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**O'.O'. Qo'ldoshev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A. Kiselyov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda til va tafakkur o‘zaro aloqasi, inson ongidagi bilimlar tizimini til orqali ifodalash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, lisoniy vositalarning lingvokognitiv, madaniy va derivativ nuqtai nazardan tahlil qilinishi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ushbu yo‘nalish inson faoliyatining turli sohalarida aks etgan so‘z va iboralarni, ularning shakllanish sabablari, ma‘no taraqqiyoti va konseptual xususiyatlarini chuqur o‘rganishni talab etmoqda. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari kuchayib, turli madaniyatlar va lisoniy jamiyatlar o‘rtasidagi muloqot faollashgan bugungi davrda, lisoniy vositalarning semantik, pragmatik va funksional jihatlarini teran anglash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Madaniyatlararo muloqotda so‘zlarning faqat lug‘aviy ma‘nosini emas, balki ular orqali ifodalanadigan ijtimoiy, madaniy va kognitiv bilimlarni ham tushunish zarurati ortib bormoqda.

Dunyo tilshunosligida insonning mehnat faoliyati bilan bog‘liq lisoniy atamalarning lingvistik xususiyatlari tadqiqotchilar diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Zotan, mehnat qurollari insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo‘lib, ular bilan bog‘liq so‘zlar, atamalar va iboralar xalq tilida nafaqat vosita, balki muayyan ijtimoiy-madaniy tajribaning ramzi sifatida ham shakllangan. Shu bois, mehnat qurollarining nomlanishida antropotsentrik, metaforik, etimologik hamda kognitiv omillar mujassam bo‘lib, ularning izchil o‘rganilishi tilshunoslikning yangi paradigmalariga mos keladi. Bunday tahlil til birliklarining nafaqat grammatik yoki semantik, balki madaniy-ma‘naviy xususiyatlarini ochib berish imkonini yaratadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda keng qamrovli integratsiyalashuv jarayonida madaniyatlararo muloqotning lingvomadaniy xususiyatlari, umumlisoniy belgilari, lug‘at boyligining o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etish masalasi katta ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ingliz va o‘zbek tillari lingvomadaniyatidagi mehnat qurollari nomlanishining qiyosiy o‘rganilishi bu tillar orasidagi o‘xshashlik va farqlarni, ularning tarixiy-madaniy asoslarini ochib beradi. Ushbu til birliklarining derivatsion xususiyatlari va tarjimada to‘g‘ri aks ettirilishi esa nafaqat til o‘rgatuvchi mutaxassislar, balki tarjimonlar, madaniyatshunoslar, etnologlar va lingvokulturologlar uchun ham nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Intellektual salohiyatga ega barkamol avlodni shakllantirish, fan va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash” siyosati zamirida ham, tilni faqat kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki milliy o‘zlikni ifoda etuvchi muhim madaniy boylik sifatida chuqur anglashga intilish yotadi<sup>1</sup>. Shu nuqtai nazardan, ingliz va o‘zbek tillarida mehnat qurollari bilan bog‘liq so‘zlarning lingvokognitiv, madaniy va semantik tahlili milliy tafakkurni va til tafovutlarini o‘rganish, ularni

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018.  
[https://constitution.uz/oz/pages/prezident\\_maruzasi\\_25yil](https://constitution.uz/oz/pages/prezident_maruzasi_25yil).

tarjima jarayonida to'g'ri aks ettirishda amaliy yechimlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tili davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 11-noyabrdagi PQ-4884-sonli "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-sonli "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda qator boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularning amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida mehnat qurollarining lisoniy voqelanishi, leksik-semantik xususiyatlari, lingvomadaniy va antropotsentrik jihatlari bilan bog'liq masalalar A.T. Jdanova, S.D. Katsnelson, Z.N. Malieva, V.P. Rubayeva, Z.I. Komarova, E.I. Chukreyeva, R.B. Li, M.E. Ensminger, C.N. Darrah, J. Smis<sup>2</sup> kabi tilshunoslar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda mehnat qurollari semantik guruh sifatida o'rganilib, ularning inson faoliyati bilan bog'liqligi, madaniy konnotatsiyasi, tilda qanday nomlanishi va qanday semantik o'zgarishlarga uchrashi tahlil qilingan. Ayniqsa, A.T. Jdanova o'z tadqiqotida mehnat qurollarining antropotsentrik yondashuv nuqtayi nazaridan qanday tasniflanishini ko'rsatgan, S.D. Katsnelson esa bu so'zlar qanday qilib turli kontekstlarda faol semantik o'zgarishlarga uchrashini yoritib bergan.

---

<sup>2</sup> Жданова А.Т. Языковая репрезентация орудий труда в социальной памяти народа (на материале русского и английского языков). Дис. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2016. – 208 с.; Кацнельсон С.Д. Категории языка и мышления. – Москва: Языки славянской культуры, 2001. – 864; Рубаева В.П., Малиева З.Н. Контекстное обучение английскому языку как технология погружения в профессиональную среду // ЦИТИСЭ. 2020. № 4. – С. 490-497; Комарова З.И., Чукуреева Е.И. Орудийная категория: парадокс или норма // Українська мова ХХІ століття: традиції і новаторство: тези доповідей ІV Всеукраїнського лінгвістичного форуму молодих чених (Київ, 24–26 квітня. 2012 г.). – Київ: Изд-во Нац. акад. наук України, 2012. – С. 345-348; Lee R.B. The! Kung San: Men, Women and Work in a Foraging Society. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979. – 526 p.; Ensminger M.E. The Anthropology of North American Farming Tools // Agricultural History, 1992. Vol. 66(1). – Pp. 1-18; Darrah C.N. Learning and Work: An Exploration in Industrial Ethnography. – London: Garland Publishing, 1996. – 200 p.; Smith J. Agricultural Implements in Colonial America // Journal of Rural History, 2004. Vol. 19(3). – Pp. 45-67.

Terminlar faollashuviga oid nazariy qarashlar O.S. Axmanova, B.N. Golovin, E.S. Kubryakova, S.V. Grinev, A.V. Popova, o‘zbek tilshunoslaridan A. Hojiyev, M. Mirtojiev, H. Dadaboyev<sup>3</sup> va boshqa bir qator olimlar tomonidan ilmiy asosda yoritilgan. Ularning asarlarida terminlarning yasalishi, strukturaviy modellar va semantik asoslarining universal va milliy xususiyatlari atroflicha o‘rganilgan.

Biroq, hozirgi kungacha ingliz va o‘zbek tillaridagi mehnat qurollari nomlarining derivatsion, kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari hamda ularning chog‘ishtirma-lingvistik nuqtai nazardan chuqur tahlil etuvchi fundamental tadqiqotlar mavjud emas. Aksariyat ishlarda mehnat faoliyatiga oid leksik birliklar faqat izohli lug‘atlar yoki tor doiradagi semantik guruhlar asosida yoritilgan. Ingliz tilshunosligida ham bu masala ko‘proq umumiy ishlab chiqarish sohalari doirasida talqin qilingan bo‘lib, mehnat qurollari terminlarining madaniy-milliy xususiyatlari, ularning konseptual mazmuni va tarjima muammolari keng ko‘lamda yoritilmagan.

Shu bois, ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatidagi mehnat qurollari nomlanishini lingvokognitiv, derivatsion va lingvomadaniy jihatdan qiyosiy o‘rganish nafaqat mavjud bo‘shliqni to‘ldirishga, balki tilshunoslikning kognitiv, madaniy va tarjimashunoslik yo‘nalishlarida amaliy yechimlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutining “Til va nutq tizimida lisoniy birliklarning tahlili” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va o‘zbek tillarida mehnat qurollari nomlanishining leksik-semantik, derivatsion va kognitiv xususiyatlarini o‘rganish, ushbu birliklarning lingvomadaniy tizimdagi o‘rnini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillari lug‘aviy zahirasiidagi mehnat qurollariga oid leksik birliklarning kognitiv va semantik xususiyatlarini tavsiflash;

ingliz va o‘zbek tillarida mehnat qurollari nomlarining olamning lisoniy manzarasida qanday ifodalanishini aniqlash, ularning konseptual va madaniy asoslarini o‘rganish;

ingliz va o‘zbek tillarida mehnat qurollariga oid leksik birliklarning terminologik tasnifi va derivatsion xususiyatlarini aniqlash;

ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatida mehnat qurollari orqali ifodalanuvchi tarixiy, madaniy va milliy qadriyatlarni qiyosiy tahlil asosida yoritish.

**Tadqiqotning obyektini** ingliz va o‘zbek tillarida qo‘llanadigan mehnat

---

<sup>3</sup> Axmanova O.S. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов. энцикл., 1969. – 606 с.; Головин Б.Н. Лингвистические основы учения о терминах. – М.: Высшая школа, 1987. – 104 с.; КСКТ (Краткий словарь когнитивных терминов – под ред. Е.С. Кубряковой и др.). – Москва: Филологический факультет Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова, 1996. – 248 с.; Гринев С.В. Исторический систематизированный словарь терминов терминоведения. – М.: Московский педагогический университет, 2000. –143 с.; Попова Л.В. Проблема качества лингвистического термина (На материале авторских терминосистем функциональной грамматики): дис. ... канд. филол. наук. – Омск, 2004. – 198 с.; Hojiev A., Ahmedov A. Semasiologiya. – Toshkent: Fan, 1981. – 221 b.; Hojiev A. Termin tanlash mezonlari. – Toshkent, 1996. – 160 b.; Mirtojiev M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – 100 b.; Dadaboyev H. O‘zbek Terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 136 b.

qurollari nomlarini bildiruvchi leksik birliklar hamda ularning kognitiv va derivatsion xususiyatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning predmetini** ingliz va o'zbek tillaridagi mehnat qurollari nomlarining semantik, lingvokognitiv, derivatsion va lingvomadaniy jihatlari, shuningdek, ularning tarjima jarayonidagi lingvistik xususiyatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot sinxron va diaxron yondashuvlar asosida amalga oshirilib, chog'ishtirma-lingvistik tahlilga tayangan. Muammoni o'rganish jarayonida lingvistik va tavsifiy tahlil, komponentli tahlil, struktur-semantik tahlil, lingvomadaniy tahlil, lingvokognitiv yondashuv, lingvostilistik tahlil, kontekstual va chog'ishtirma tahlil metodlari keng qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

olamning lisoniy manzarasida mehnat qurollarining nomlanishi, tasniflanishi, metaforik asosda ishlatilishi, shuningdek, leksik-semantik va frazeologik birliklar orqali namoyon bo'lishi aniqlanib, ingliz va o'zbek tillarida mehnat qurollari nomlarining konseptual asosda shakllangani va ular orqali inson dunyoqarashi namoyon bo'lishi kognitiv-lingvistik yondashuv asosida ochib berilgan;

ingliz va o'zbek tillari leksikasida mehnat qurollariga oid leksik birliklarning semantik xususiyatlari, jumladan sinonimlik, antonimlik, omonimlik va ko'pma'nolilik holatlari chog'ishtirma-lingvistik analiz asosida aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi mehnat qurollariga oid leksik birliklar terminologik jihatdan tizimlashtirildi, ya'ni ularning semantik maydonlari aniqlanib, sohalarga oid bo'linishi va tasnifi ishlab chiqildi, shuningdek, ushbu birliklarning derivatsion xususiyatlari aniqlanib, morfologik modellari shakllantirildi, ya'ni so'z yasash va o'zgartirish mexanizmlari, prefiks, suffiks va boshqa morfemalarning rolini ko'rsatadigan tizimli izoh berilgan;

mehnat qurollari orqali ifodalanuvchi tarixiy, madaniy va milliy qadriyatlar ingliz va o'zbek lingvomadaniyati kontekstida qiyosiy o'rganilib har ikki xalq tafakkurida mehnat konsepti tarixiy-madaniy qiymatga ega ekani, ularning milliy mentalitetdagi o'rni va semantik yuklamasi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari matn tilshunosligi, matn pragmatikasi, kognitiv adabiyotshunoslik, chog'ishtirma stilistika, antropologik tilshunoslik, lingvokulturologiya, semantika sohalaridagi tadqiqot hamda ishlanmalarga muayyan hissa bo'lib qo'shiladi;

mehnat qurollarini kognitiv-pragmatik jihatdan tavsiflash mo'ljaliga ega tahlil usullarining milliy tilshunoslik uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi va ularning yangi rusumdagi darslik, o'quv qo'llanmalarni mukammallashtirishga xizmat qilishi asoslangan;

tadqiqot jarayonida ingliz va o'zbek tillarida mehnat qurollariga oid to'plangan faktik materiallar mazkur tillar adabiyoti, madaniyati va tilshunoslik fanlari bo'yicha ma'ruzalar tuzish hamda ta'lim jarayonini boyitish uchun muhim manba bo'la olishi isbotlandi. Ayniqsa, bu materiallar tillararo lingvomadaniy tafovutlar, konseptual xaritalash hamda so'z yasash modellari orqali talabalarga tilning ichki mexanizmlarini chuqurroq anglatish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** mehnat qurollari nomlarining lingvokognitiv va madaniy jihatlarini muammosining aniq va tizimli ifodalanganligi, qoʻllangan yondashuvlar va metodologiyalarning ilmiy asosga ega boʻlishi hamda foydalanilgan nazariy manbalarning rasmiy va vakolatli manbalardan olinishi bilan taʼminlanadi. Keltirilgan tahlillar tavsifiy, komponentli, distributiv, struktur-semantik, lingvostilistik va kontekstual tahlil metodlari asosida olib borilgan. Tadqiqot natijalari va tavsiyalari amaliyotda sinovdan oʻtkazilgan hamda tegishli mutaxassislar va ilmiy tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mehnat qurollari nomlarining lingvokognitiv va madaniy konnotatsiyalarini ochib berish, ularning semantik va strukturaviy xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish orqali madaniyatlararo lingvistik tadqiqotlar uchun nazariy manba yaratishda namoyon boʻladi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati esa olingan natijalar va xulosalarning taʼlim jarayonida, xususan, ingliz va oʻzbek tillarining lingvomadaniyati, leksikologiya va terminologiya kurslarida qoʻllanilishi hamda mehnat qurollari nomlarining tarjimai va lugʻatlashtirishida samarali foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va oʻzbek tillarida mehnat qurollari nomlarining kognitiv, derivatsion jihatlarini aniqlashga doir tadqiqot natijalari asosida:

ingliz va oʻzbek tillarida mehnat qurollari nomlarining olamning lisoniy manzarasida qanday ifodalanishini aniqlash, ularning konseptual va madaniy asoslarini oʻrganish bilan bogʻliq jihatlarini tahlili natijalaridan Samarqand viloyati teleradiokanalida 2025-yil 5-avgust kuni eʼfiroga uzatilgan “Kun mavzusi” eshittirishining navbatdagi soni ssenariysini tayyorlashda foydalanildi (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 5-avgustdagi №01-07/276-sonli maʼlumotnomasi). Mazkur koʻrsatuvda tadqiqot natijalaridan olingan mehnat qurollarini anglatuvchi asosiy til birliklari (leksik, semantik va stilistik jihatdan)ning nomlanishida ifodalangan antropotsentrik mazmun, yaʼni inson faoliyati, tajribasi va madaniy dunyoqarashining tildagi inʼikoslari lingvomadaniy yondashuv asosida tizimlashtirilgani haqida fikrlar bayon etildi. Shuningdek, milliy madaniyatda mehnat va kasb-hunar konseptlarining shakllanishi, ularning vositasida xalqning qadriyat yoʻnalishlari, ijtimoiy rollari, tarixiy tajribalari va dunyoqarashi qanday ifodalangani yuzasidan mulohaza bildirilgan;

ingliz va oʻzbek tillari leksikasida mehnat qurollariga oid leksik birliklarning semantik xususiyatlarini tavsiflashga oid dissertatsiyaning xulosalaridan Oʻzbekiston davlat jahon tillari universitetida, Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi doirasida Rumiyaning Alba Yuliy universiteti bilan hamkorlikda amalga oshirilgan “ICM-2022-KA171-000077648” raqamli xalqaro loyiha doirasida foydalanilgan (Oʻzbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 29-iyundagi №04-06-1/3704-sonli maʼlumotnomasi). Loyiha doirasida, mehnat qurollari nomlanishida uchraydigan takroriy semantik konstruksiyalar, metaforik ifodalar va oʻxshatishlar oʻrganildi. Ushbu til vositalari orqali mehnat qurollarining funksional, madaniy va konseptual ahamiyati qanday tarzda ifodalanishi dalillandi.

Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillaridagi mehnat quollariga oid leksik birliklarning lingvistik va lingvomadaniy jihatdan qiyosiy tahlili ularning har ikkala til va madaniyat konseptlaridagi o‘xshashliklari hamda farqlarini ochib berdi;

ingliz va o‘zbek tillarida mehnat quollariga oid leksik birliklarning terminologik tasnifi va derivatsion xususiyatlari tahliliga oid ilmiy natijalardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida, Britaniya Kengashi (British Council) hamkorligida amalga oshirilgan 1683580-raqamli “English as a School Subject” nomli xalqaro loyiha doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 11-sentabrdagi №11-25/24-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tadqiqot asosida mehnat quollarini anglatuvchi leksik birliklarning yangi tasnifi ishlab chiqilgan. Mazkur tasnif nafaqat an’anaviy grammatik yoki semantik mezonlarga, balki bu birliklarning madaniyat bilan bog‘liq mazmuniy-kognitiv xususiyatlariga tayangan holda amalga oshirilgan. Shu orqali ushbu leksik birliklarning xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini, tarixiy tajribalari va moddiy madaniyati bilan qanday bog‘liqligi yanada aniqroq ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatida mehnat quollari orqali ifodalanuvchi tarixiy, madaniy va milliy qadriyatlarni qiyosiy tahlili bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan, AQSHning O‘zbekistondagi elchixonasi tomonidan 2020-2022 yillarga mo‘ljallangan SUZ80020GR0039-raqamli “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 20-iyundagi №1851/02-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida mehnat quollarining nomlanishida qo‘llaniladigan derivatsion jarayonlar, kognitiv mexanizmlar, leksik birliklar, hamda madaniyatga xos atamalar tahlil qilindi. Shuningdek, nomlanishlarda yuzaga keladigan takroriy semantik konstruksiyalar, metaforik ifodalar va o‘xshatishlarning funksional, madaniy va konseptual ahamiyatga egaligi aniqlandi. Bundan tashqari, ingliz va o‘zbek tillaridagi mehnat quollariga oid leksik birliklarning lingvistik va lingvomadaniy jihatdan qiyosiy tahlili ularning madaniyat va til konseptlaridagi o‘xshashliklari hamda farqlarini ochib berdi. Mazkur ilmiy natijalar va tahlillardan xalqaro loyiha doirasida o‘quv, madaniyatlararo kommunikatsiya va tadqiqot faoliyatlarida samarali foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, ulardan, 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, asosiy hajmi 123 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslanib, uning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor

yo'nalishlariga muvofiqligi dalillar asosida yoritilgan. Muammoning ilmiy adabiyotlar doirasida o'rganilganlik darajasi tahlil qilinib, tadqiqotning maqsadi hamda unga erishish yo'lida qo'yilgan asosiy ilmiy vazifalar aniqlashtirilgan. Shuningdek, ishning obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotda qo'llanilgan metodlar bayon etilgan.

Dissertatsiyada olib borilgan izlanishlar natijasida erishilgan ilmiy yangilik aniq shakllantirilgan, tadqiqot natijalarining amaliy qiymati ko'rsatilib, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Olingan ilmiy xulosalarning ishonchliligi va asoslanganligi dalillar bilan mustahkamlangan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ilmiy doiralarda aprobatsiyadan o'tkazilgani, nashr etilgan ilmiy maqolalar va ishning strukturasi haqida batafsil ma'lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mehnat qurollari nomlarini antropotsentrik va kognitiv yondashuvlar asosida o'rganish”** deb nomlangan birinchi bobida olamning konseptual manzarasida mehnat qurollarining ifodalanishi, mehnat qurollari nomlarining lingvokognitiv talqini hamda antropomorf va metaforik xarakteri tadqiq etilgan.

Konsept insonning atrofdagi olam bilan o'zaro ta'siri natijasidir, ta'lim, shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy tajribaga qarab voqelik hodisalarini aks ettiradi va izohlaydi<sup>4</sup>. Inson tashqi va ichki olam obyektlari haqida biladigan, ishonadigan, tasavvur qiladigan narsa konsept deb ataladi. Konsept inson tajribasini umumlashtiradi<sup>5</sup>. Mehnat qurollarini konseptuallashtirish jarayoni davomiy, ya'ni tugallanmagan bo'lib, insoniyat tarixidagi asboblar evolyusiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Mehnat qurollari – bu shaxs tomonidan ma'lum ishlarni bajarish uchun yaratilgan vositalardir. Birinchi odamlar paydo bo'lganidan buyon mehnat qurollari ular hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Mehnat qurollarisiz sivilizatsiya rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Mehnat qurollari ilmiy-texnik taraqqiyot va inson ehtiyojlari ta'siri ostida o'zgarishlarga duch keldi va bu jarayon davom etmoqda. Insoniyat tarixida mehnat qurollarining bir qator turlarini ajratish mumkin. Eng qadimiy va oddiy mehnat quroli sifatida toshdan foydalanilgan. Tosh yordamida turli xil harakatlar amalga oshirilishi mumkin bo'lgan, masalan, boshqa tosh yoki yog'ochni ajratish, mahsulotlarni maydalash va hokazo. Toshlar inson turli vazifalarni bajarish uchun ishlatgan birinchi vositalar edi.

Mehnat qurollari evolyutsiyasi rivoji bilan uning konseptuallashuvi ham o'zgarib bormoqda. Qo'l mehnati qurollari konseptini ifodalovchi vositalarga asbob, anjom, uskuna, matoh kabi tushunchalar kiradi. Oldinlari ekin yerlari qo'l mehnati qurollari yordamida shudgor qilingan bo'lsa, hozirgi kunga kelib bu ishlar texnik mashinalar yordamida amalga oshirilmoqda. O'n yillar oldin tibbiyotda jarrohlik amaliyotida *skalpel (pichoqcha)*, *qaychi*, *igna*, *qisqichlardan* foydalanilgan bo'lsa, bugungi kunda ularning o'rnini *texnik lazer* egalladi. Uy ro'zg'or ishlarida ham qo'llaniladigan asboblar vazifasini endi mashina amalga

<sup>4</sup> Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Известия АН. Сер. Литературы и языка. 1993. №1, Т. 52. – С. 3-9.

<sup>5</sup> Рахилина Е.В. Когнитивный анализ предметных имен: семантика и сочетаемость. – М., Русские словари 2000. – С. 7.

oshirmoqda (*kir yuvish mashinasi, idish yuvish mashinasi, changyutkich va hokazo*).

Kognitiv tilshunoslikda alohida e'tibor qaratiladigan jihatlardan biri bu – milliy olam manzarasidir. Har bir xalqning tili, u xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy hayotini, shuningdek, ularning olamga munosabatini aks ettiruvchi ko'zgu vazifasini bajaradi. Olam manzarasining milliy xususiyatlari esa til birliklari orqali namoyon bo'ladi. Bu holat, ayniqsa, mehnat qurollari, kundalik faoliyat, milliy urf-odatlar va kasbiy leksikada yaqqol seziladi. Misol uchun, o'zbek tilida “ketmon”, “belkurak”, “shudgor”, “qo'sh” kabi leksemalar nafaqat oddiy mehnat qurollarini bildiradi, balki o'zida butun bir dehqonchilik madaniyati, qishloq hayoti, mehnat etikasi kabi konseptual tizimni mujassamlashtiradi. Bunday so'zlar orqali xalqning tabiat bilan o'zaro aloqasi, ijtimoiy mehnatga bergan bahosi, mehnatdagi qadriyatlari va urf-odatlarini aks ettiriladi. Shunday qilib, konseptlar milliy tafakkurning til orqali kodlangan shaklidir.

O'zbek tilida “mehnatning rohatini ko'rdi”, “non topish yo'llari”, “ketmonni qo'lidan tashlamadi” kabi metaforalar – bu faqat ifoda emas, balki xalq tafakkuridagi mehnat, tirikchilik, yashash bilan bog'liq konseptual modeldir. Demak, metaforalar milliy konseptosferaning semantik qatlamlaridan biri bo'lib, ular ongda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni kodlash va uzatishda xizmat qiladi.

Olam manzarasini strukturaviy jihatdan tasniflash uchun konseptual xaritalardan foydalaniladi. Konseptual xarita – bu inson ongidagi bilimlar tarmog'i bo'lib, u konseptlar o'rtasidagi munosabatlarni grafik yoki semantik shaklda tasvirlaydi. Bu xaritalar asosida biz biror bir konsept – masalan, “asbob” konsepti bilan bog'liq boshqa konseptlarni (ish quroli, mashina, qurilma, texnologiya, maqsad, funksional birlik, mehnat vositasi va h.k.) aniqlay olamiz. Konseptual xaritalar ayni vaqtda leksik-semantik tahlilga asos bo'lib xizmat qiladi va so'zlar o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni ochib beradi.

Masalan, “asbob” konsepti doirasida tuzilgan konseptual xaritada quyidagi qatlamlarni ko'rish mumkin: material asos (yog'och, temir, plastmassa); funksional belgi (kesadi, tikadi, o'lchaydi, teshadi); qo'llanish sohasi (tibbiyot, qurilish, dehqonchilik, texnologiya); zamonaviy ekvivalent (lazer, robot, mashina, sun'iy intellekt); stereotipik obraz (oddiylik, ishonchlilik, qo'l mehnatining ramzi). Bu qatlamlar orqali biz konseptlarning semantik tuzilmasini ko'rib chiqishimiz, shuningdek, ularning evolyutsiyasini izchil tarzda o'rganishimiz mumkin. Aynan shu yondashuv orqali mehnat qurollari konseptining ibtidoiydan zamonaviygacha bo'lgan bosqichlari lingvistik va madaniy nuqtai nazardan ochib beriladi.

Aynan olamni o'zlashtirishning ma'lum bir bosqichida insonning olamning har qanday predmet yoki hodisasiga munosabati kabi inson omili, uni tegishli obyektidan amaliy foydalanishni aks ettiruvchi tavsif usulini namoyon etadi<sup>6</sup>. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, qo'l mehnatining rivojlanishi bilan inson tabiatga hukmronlik qila boshladi, shuningdek, uning dunyoqarashi ham kengayib bordi. Predmetlarda u yangi, ilgari noma'lum xususiyatlarni kashf etdi. Boshqa tomondan, mehnatning rivojlanishi, albatta, jamiyat a'zolarining yaqinroq birlashishiga, o'zaro qo'llab-quvvatlashi va birgalikdagi faoliyatiga hissa qo'shdi.

<sup>6</sup> Колшанский Г.В. Объективная картина мира в познании и языке. – М., Наука, 1990. – С. 32.

Insoniyat tarixi boshidan va undan keyin mehnat qurollari inson tili va tafakkuri rivojlanishining asosi va sababi bo'lgan bir qator vazifalarni bajargan. Ushbu vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Mehnat qurollari tananing tabiiy imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirdi. Qo'l bilan ov qilsa bo'lardi, lekin tayoq bilan zarba berilsa, bu butunlay boshqa masala, shuningdek, ov paytida jamoaviy holda tayoqdan foydalanish esa yirik hayvonlarni mag'lub etishga va xavfli yirtqichlarga muvaffaqiyatli qarshilik ko'rsatishga imkon bergan.

2. Voqelikning sirtida yotmaydigan, hodisalarda namoyon bo'lmagan xususiyatlarini kashf etishga hissa qo'shdi. Psixologlar va maymun xulq-atvori tadqiqotchilari aytganidek, maymunlar uyg'un fikrlash imkoniyatiga ega, ya'ni ular atrofdagi olamni faqat sezgilarda yoki yuzaki darajada ko'rishadi va bilishadi. Shu sababli, atrofdagi olamning mohiyatiga kirib borish maxsus predmetlardan qurol sifatida foydalanishga imkon berdi.

3. Insoniyat tarixining boshida ham, butun davomida ham mehnat qurollaridan foydalanish chegaralari mavhumdir. Bu, shubhasiz, mavhum fikrlashning rivojlanishiga hissa qo'shdi. Qadimdan ov paytida foydalanilgan tayoq dastlab dubulg'aga, keyinchalik kamonga, va nihoyat miltiqqa aylandi. Davr o'tishi bilan mehnat qurollari tafakkur qobiliyati bilan teng ravishda takomillashib bordi.

4. Mehnat qurollarini ishlab chiqarish va ishlatish jarayonida insonning bilish doirasi beixtiyoriy rivojlangan, ya'ni inson o'zi bilmagan holda ma'lum axborotni qabul qilgan va qayta ishlashga erishgan. Mehnat qurollaridan jamoaviy foydalanish esa axborot jarayonlarining kengayishi va murakkablashishiga olib kelgan hamda til va lisoniy faoliyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Mehnat qurollarining mazkur vazifalari tarixiy jarayonda doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Shuningdek, barcha zamonaviy qurilmalar, mashinalar va mexanizmlar o'z vazifalarini bajarishda davom etmoqda. Shuning uchun ular tarixiy rivojlanishning asosidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, qurolli faoliyat hissiy bilish darajasiga asoslanadi.

Mehnat qurollarining aqliy obrazlari (tasviriy ifodasi) hamda ularning harakat ifodasi (vazifaviy xususiyatlar) antropomorfik xarakterga egadir. Qadim zamonlarda qurollarga tabiiy organlarga taqlid sifatida qaralgan. Seneka bu haqda shunday yozadi: "Og'izga qo'yilgan donalar qattiq tishlar bilan maydalanadi va bir vaqtning o'zida sakrab chiqadigan narsalar til yordamida tishlarga qaytariladi. Ushbu obrazga taqlid qilib, kimdir bir paytlar tishga o'xshash bir qattiq tosh ustiga boshqa qattiq toshni qo'ydi va ular o'rtasida donlarni qo'yib, ularni tez-tez ishqalab, maydalab oldi"<sup>7</sup>.

Mehnat qurollarining "somatik genezisi" tegishli nomlanishlarga ega emas, zero "organ aksi" omillarida o'z ifodasini topgan uzoq ajdodlarimizning amaliy zukkoligi ibtidoiy qurollar loyihalarida mujassamlangan. Xususan, "qurol" nomlari nafaqat to'g'ridan-to'g'ri, balki obrazli metaforik ma'nolarda ham qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Qurollar obrazlariga asoslangan metafora va obrazli qiyoslash tarixiy zamoni namoyon ettiruvchi o'z manzarasini yaratadi. Metafora

<sup>7</sup> Нуаре Л. Бить, раздроблять, молотить // Роль орудия в развитии человека. – Л.: Эспинас, 1925. – С. 81.

va inson xotirasidan tashqarida mavjud bo'lmagan bilim o'rtasidagi aloqa kognitiv psixologiyaning zamonaviy konseptini aks ettiradi<sup>8</sup>.

Mehnat qurollari o'z xilma-xilligi bilan inson hayotiga mustahkam kirib kelganligi sababli, ularning nolisoniy belgilari asta-sekinlik bilan metafora va obrazli qiyoslashlarda, shuningdek, xalq ijodiyoti – maqollar, masallar, topishmoqlarga mujassamlangan lisoniy o'yinlar obyektiga aylandi<sup>9</sup>. Eng oddiy mehnat qurollari ham metaforik ifodalarda mujassamlangan. Tavsiflanayotgan “qurol” metaforalarini haqli ravishda kognitiv deb atash mumkin, chunki ular vositalarning paydo bo'lishi va ularni amaliy qo'llash usullari haqidagi bilimlarga asoslanadi.

Metafora – bu antropomorfizmdan foydalangan holda murakkab konseptual strukturalarni anglash vositasidir. G. Lakoff va M. Jonsonning fikricha, insonlar abstrakt tushunchalarni konkret va tanish bo'lgan hodisalarga nisbatan talqin qilishga moyildir<sup>10</sup>. Antropomorfik metaforalar aynan shu jihatdan muhim: ular nafaqat jonsiz obyektlarga insoniy fazilatlarini yuklaydi, balki ushbu obyektlar haqida chuqurroq, mazmunga boyroq bilim shakllantiradi. Shu sababli, “qurol”, “mexanizm”, “robot” kabi tushunchalar faqat texnik vosita emas, balki inson tafakkurining timsoli sifatida qaraladi.

Dissertatsiyaning **“Mehnat qurollari nomlanishining derivatsion xususitlari va tarjimada berilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida mehnat qurollari nomlarining terminologik tasnifi, derivatsion xususiyatlari hamda atamalarning tarjimada berilishi tadqiq etilgan.

Termin tushunchasiga Sh.S.Safarovning “Tilshunoslik terminlari lug'ati”da aniq ta'rif keltirilgan: “Termin, atama lotincha “terminus” (chegara, oxirgi nuqta) so'zidan olingan bo'lib, fan, texnika, san'at, madaniyat, iqtisodiyot va boshqa sohalarga oid birliklarga nisbatan ishlatiladi. Ba'zi terminshunoslarning fikricha, termin birliklariga boshqa so'zlardan farqli ravishda, ko'pma'nolik va ekspressivlik xususiyatlari xos emas”<sup>11</sup>.

Mehnat qurollari atamaları ishlatilish sohasiga ko'ra: qishloq xo'jaligi mehnat qurollari: *o'roq, belkurak, tasha, panshaxa* va hokazo; maishiy mehnat qurollari: *supurgi, pichoq, bolg'a, ombur, xokandoz, chopper* va hokazo; sanoat mehnat qurollari: *bigiz, dastgoh, mikser, lom, buldozer, mikser* va hokazo; kasb-hunar mehnat qurollariga bo'linadi: *skalpel, tok qaychi, oshpichoq, angishvona, igna* va boshqalar.

Ta'kidlash joizki, bitta mehnat quroli bir nechta sohada ishlatilishi mumkin. Masalan, “*qaychi*” ham maishiy mehnat quroli guruhiga, ham kasb-hunar mehnat quroli guruhiga kirishi mumkin. O't o'chiruvchilarning maxsus quroli sanalgan “*lom*” maishiy mehnat quroli sifatida ham, ya'ni qurilish ishlarida foydalanilishi mumkin. Shuningdek, deyarli har bir soha vakillari “*pichoq*”dan foydalanishining guvohi bo'lamiz.

<sup>8</sup> The Blackwell Dictionary of Cognitive Psychology / edited by M. Eysenck. – Oxford. Cambridge. Massachusetts / Blackwell Publishers, 1994. – P. 205.

<sup>9</sup> Серебренников Б.А. Роль человеческого фактора в языке. Язык и мышление. – М.: Наука, 1988. – С. 178.

<sup>10</sup> Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: The University of Chicago Press, 1980/2003. – 276 p.

<sup>11</sup> Safarov Sh.S. Tilshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: “Lesson press” nashriyoti, 2023. – B. 294.

Texnologiyaning rivoji mehnat quollarining rivojlanishiga asos bo'ldi. Mehnat quollaridan foydalanish jarayonida yangi texnologiyalarni rivojlantirishni rag'batlantiradigan yangi ehtiyojlar paydo bo'ladi. Masalan, qishloq xo'jaligi vositalarining paydo bo'lishi hosildorlikning oshishiga olib keldi, bu esa, o'z navbatida, yangi qishloq xo'jaligi texnologiyalarining rivojlanishiga hissa qo'shdi.

Lisoniy manbaga asosan *arxaik, neologik, o'zlashtirilgan, milliy, internatsional* atamalarni ajratish mumkin. Bugungi kunda ishlatilmaydigan mehnat quollari nomlari arxaik so'zlar hisoblanib, ularga quyidagilarni misol keltirish mumkin: *chaqmoqtosh, cho'qmori, qayroqtosh, bo'yracho'p, omoch*. Ingliz tilida ham bir qator arxaizmlashgan mehnat quollari nomlari aniqlandi: *yoke, oxbow, bone awls, lissoir, seed fiddle, flail, chaff cutter* va hokazo.

Har qanday sohada yangi mehnat quolining paydo bo'lishi bilan tilshunoslikda ham yangi atama paydo bo'ladi. Rivojlanish davrida yildan- yilga yangi mehnat quollari kashf etilmoqda. Ayniqsa, qo'l mehnati quollarining o'rniga texnik, mashina, kompyuterlashtirilgan turlari taraqqiyotini misol keltirish mumkin. Masalan, o'zbek tilida quyidagi mehnat quollari neologik atama hisoblanadi: *pompa, rover dastgoh, optima apparati*. Ingliz tilida misol: *botuda, drill, mixer, chopper*.

Xorijiy atamalar to'liq yoki alohida atama elementlari sifatida o'zlashtirilishi mumkin. Zero, mehnat quollari sohasidagi yangi atamalarning ko'pchiligi o'zbek tili va boshqa tillarga asosan transkripsiya, transliteratsiya hamda kalka usulida tarjima qilish asosida qabul qilinmoqda. Xususan, inglizcha "*chopper*", "*drel*", "*mikser*" kabi mehnat quollari o'zbek tilida ham shu nomlar bilan atalmoqda. O'zbek tilida boshqa tillardan kirib kelgan bir qator mehnat quollari nomlarini uchratish mumkin. Jumladan: *Andava* (fors tilidan olingan) – somonli loy suvash asbobi. Somonli, loy, ganch va shular kabilarni silliqlab suvash uchun ishlatiladigan dastali, tagi silliq asbob<sup>12</sup>; *Angishvona* (fors tilidan olingan) – barmoqni saqlovchi. Ish tikishda barmoq uchiga kiydiriladigan metall buyum<sup>13</sup>; *Buranda* (fors tilidan olingan) – kesuvchi, qirquvchi. Kosibchilikda terilarni kesish uchun qo'llaniladigan po'lat tig'li, yog'och dastali asbob<sup>14</sup>; *Xaskash* (fors tilidan olingan) – xas tortuvchi, to'plovchi. Xashak, xas, cho'p va shu kabilarni yig'ish, to'plash, shuningdek, chopilgan yer tuprog'ini maydalab tekislash uchun ishlatiladigan uzun dastali, ko'p tishli qishloq xo'jalik quoli<sup>15</sup>; *Bolt* (nemis tilidan olingan) – mahkamlovchi temir chiviq<sup>16</sup> va hokazo. Demak, mehnat quollari nomlari o'zbek tiliga asosan fors, nemis, rus va ingliz tillaridan o'zlashtirilgan.

Atamalar muayyan soha, kasb kishilari tomonidan maxsus qabul qilingan, rasmiylashtirilgan ma'lum bir me'yordagi so'zlardir. Shuning uchun ularni deyarli boshqa so'zlar bilan almashtirib bo'lmaydi. To'g'ri, ularda ham sinonimik holatlar uchraydi, biroq, bunday holat asosan bir tilga boshqa tildan kirgan so'zlar bilan

<sup>12</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 84.

<sup>13</sup> O'sha manba: 83.

<sup>14</sup> O'sha manba: 376.

<sup>15</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 387.

<sup>16</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 316.

ushbu tilda mavjud atamalarning parallel qo'llanilishi natijasida sodir bo'ladi. Masalan, o'zbek tili so'zlashuv nutqida ham "stanok" (rus tilidan kirib kelgan) ham "dastgoh" so'zlari ishlatilishi mumkin.

Atamalar semantik tarkibi bilan ajralib turadi, bu esa bir ma'noli va ko'p ma'noli atamalarni ajratish imkonini beradi. Masalan, "lom" so'zining lug'atda ikki hil talqini mavjud: 1) Arab alifbosidagi "l" harfining nomi; 2) Bir yoki har ikkala uchi ham o'tkir bo'lgan uzun, ingichkaroq metall asbob<sup>17</sup>. Demak, ushbu so'z omonimik tarzda ishlatiladi.

Ingliz tilida ham mehnat qurollari nomining omonimik hodisasi ham kuzatildi: *Rake* – 1) a horticultural implement, a long-handled tool with tines; 2) the commission taken by the house when hosting a poker game; 3) a man habituated to immoral conduct<sup>18</sup>.

Ingliz tili ilmiy-texnik matnlarida qisqartmalardan unumli foydalaniladi. Abbreviatsiyalar so'z birikmalari tarkibidagi asosiy so'zlarning boshlang'ich harflaridan hosil bo'ladi. Abbraviatsiyalar asosan texnik qurilmalarga nisbatan qo'llaniladi. Ular ma'lum bir texnik qurilmaning holatini, muammosini, o'lchagich belgisini ko'rsatishi mumkin. Masalan, kir yuvish mashinalarida "FE", "FI", kabi belgilarni uchratish mumkin: *FE* – Flow Element – oqim elementi, *FI* – Flow Indicator – oqim ko'rsatkichini bildiradi. Birikmaning ma'lum bir qismi qisqartirilishi mumkin: *D.C. amplifier* - *direct current amplifier* – to'g'ridan-to'g'ri oqim kuchaytirgich.

Akronimlar – bu oddiy lisoniy birliklar sifatida o'qiladigan va qabul qilinadigan qisqartmalardir. Qisqartmalar harflarning turli xil birikmalaridan hosil bo'ladi. Masalan, hozirda ko'pgina mehnat qurollari o'rnini olgan "lazer" (light amplification by stimulated emission of radiation – majburiy nurlanish yordamida yorug'likni kuchaytirish) so'zi akronimik tarzda hosil bo'lgan. Ushbu qurilma ultrabinafsha, infraqizil va ko'zga ko'rinadigan soha diapazonidagi nurlanishni hosil qiladi.

Mehnat qurollari nomlari nafaqat professional-terminologik leksika turi hisoblanadi, balki shevaga xos leksika bo'lishi ham mumkin. Dialektal leksika (shevaga xos so'zlar) ma'lum hududda yashaydigan kishilar qo'llaydigan, o'sha hudud aholisi nutqiga xos bo'lgan so'zlardir. Zotan, dialektal leksika faqat og'zaki nutqqa xosdir. Uning so'zlashuv leksikasidan farqi shundaki, dialektal leksikaning qo'llanilish hududi chegaralangan bo'ladi. Masalan, Urganchda ayrini "tushaxa", Qarshi, Farg'ona shaharlarida kichik bolg'ani "xayis", Qo'qon shahrida barg qirqadigan asbobni "daskalla", Buxoroda tok qaychisini "kachkoti", sixmolani "dandona", Xorazmda omochning qulog'ini "dirka" ayri, pashaxani "yova", Qarnoqda esa "beshaxa", Uychida "beshlik", narvonni "shoti" deb atashadi<sup>19</sup>.

Mehnat qurollari nomlari terminologik tizimining derivatsion xususiyatlarini o'rganish terminologiya tizimida ikkilamchi nominasiya jarayoni sifatida qaraladigan ma'lum bir bilim sohasi atamalarning yaratilishi, terminologik

<sup>17</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 507.

<sup>18</sup> <https://en.wikipedia.org/wiki/Rake>

<sup>19</sup> Hojiev A., Ahmedov A. Semasiologiya. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 19.

belgilarning paydo bo'lishi, tuzilishi, ishlab chiqarish mexanizmlari va usullari to'plami asosida amalga oshiriladi.

Tub o'zak so'zlardan hosil bo'lgan mehnat qurollari nomlariga “*omoch*”, “*bolg'a*”, “*bolta*”, “*bel*” va hokazolarni misol sifatida keltirish mumkin. Ingliz tilida misol: “*axe*”, “*adze*”, “*nail*”, “*spade*”, “*knife*”, “*rake*” va hokazo.

Ikki yoki undan ortiq so'zlarni (o'zaklarni) qo'shish orqali terminoderivatsiyaning integral morfologik va sintaktik usuli bo'lgan so'z tuzilishi, ya'ni kompozitsiya usuli ingliz va o'zbek tillarida mehnat qurollari terminologiyalarida uchraydi. Jumladan: *Xaskash* – xashak, xascho'p va boshqalarni yig'ish, to'plash yoki urug'i sochib ekiladigan o'simliklar (arpa, bug'doy, ukrop, kashnich va boshqalar)ni ekishga mo'ljallab haydalgan yoki chopilgan yer tuprog'ini maydalab tekislash uchun ishlatiladigan uy-ro'zg'or quroli<sup>20</sup>. Forscha “*xas*” va forscha “*kash*” (tortmoq) so'zlari birikmasi; *Belkurak* – yer qazish, sochilgan narsalarni yerdan to'plab olish asbobi<sup>21</sup>. “*Bel*” va “*kurak*” so'zlari birikmasi; *Chaqmoqtosh* – bir-biriga yoki temir parchasiga urganda o't chiqoradigan qattiq tosh<sup>22</sup>. “*Chaqmoq*” va “*tosh*” so'zlari birikmasi; *Panshaxa* – odatda beshta egri sanchig'i bo'lgan, paxta, xashak kabilarni olish, surish uchun ishlatiladigan uzun sopli asbob<sup>23</sup>. Forscha “*panj*” va o'zbekcha “*shoxa*” birikmasi; *Poytesha* – shakli oyoqning tagiga o'xshash tesha. Tik turib yog'och yo'nish va tekislash uchun ishlatiladigan, dastasi uzun katta tesha<sup>24</sup>. Forscha “*poy*” (oyoq) so'ziga “*tesha*” so'zi qo'shilgan;

Ingliz tilida misol: *Handsaw* – a saw (= a tool that has a long or round blade with sharp points, for cutting hard materials such as wood) that is operated by hand rather than using electricity or a motor<sup>25</sup>. “*Hand*” va “*saw*” so'zlari birikmasi; *Pitchfork* – a pitchfork or hay fork is an agricultural tool used to pitch loose material, such as hay, straw, manure, or leaves. It has a long handle and usually two to five thin tines designed to efficiently move such materials<sup>26</sup>. “*Pitch*” va “*fork*” so'zlari birikmasi; *Grasshook* – grasshook is a single-handed agricultural tool designed with variously curved blades and typically used for harvesting or reaping grain crops, or cutting succulent forage chiefly for feeding livestock<sup>27</sup>. “*Grass*” va “*hook*” so'zlari birikmasidan hosil bo'lgan.

Tildagi barcha qo'shimchalar (asosan affikslar) atama yasashida bir xil qo'llanilmaydi. Ba'zi terminologiyada bir affiks mahsuldor bo'lib, ko'plab so'zlar yasashga xizmat etsa, ikkinchisida esa boshqa affikslar mahsuldor hisoblanadi. So'zlarga qo'shib, uning ma'nosi bilan bog'liq, yangi ma'noli so'z yasaydigan qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar deyiladi. So'z yasovchi qo'shimchalar lug'aviy ma'noni o'zgartiradi<sup>28</sup>. Masalan, *kavsharlagich* so'zida ikkita so'z

<sup>20</sup> <https://uz.wiktionary.org/wiki/xaskash>

<sup>21</sup> <https://uz.wiktionary.org/wiki/belkurak>

<sup>22</sup> <https://uz.wiktionary.org/wiki/chaqmoqtosh>

<sup>23</sup> <https://izoh.uz/uz/word/panshaxa>

<sup>24</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 288.

<sup>25</sup> <https://dictionary.cambridge.org/handsaw>

<sup>26</sup> <https://en.wikipedia/pitchfork>

<sup>27</sup> <https://dictionary.cambridge.org/grasshook>

<sup>28</sup> Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2003. – B. 50.

yasovchi qo‘shimcha mavjud bo‘lib, *kavshar*-ot, *kavsharla*-fe‘l, *kavsharlagich*-ot-ikki marta lug‘aviy ma‘no o‘zgargan, *kavshar*-predmet (kavsharlash jarayonida biriktiriladigan detallar orasini (tirqishni) to‘ldiruvchi metall yoki qotishma), *kavsharla*-jarayon, *kavsharlagich*-asbob.

So‘z yasalishi barcha so‘z turkumlari uchun xos emas. O‘zbek tilida mustaqil so‘z turkumlaridan *ot*, *sifat*, *fe‘l ravish* turkumlarida so‘z yasalishi mavjud. Son, olmosh va yordamchi so‘zlar boshqa turkumlardan yasalmaydi<sup>29</sup>. So‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida bir so‘z turkumidan shu turkumga xos so‘z yasalishi mumkin: *suva+oq*, *chig‘ir+iq*. Bunday yasaliş ichki yasaliş deyiladi. So‘z yasovchi qo‘shimchalar orqali bir so‘z turkumidan boshqa turkumga xos so‘zlar yasaliş tashqi yasaliş deyiladi. Misol: *o‘r-oq*, *supur-gi*. So‘z yasovchi qo‘shimchalar lug‘aviy negiz hosil qiladi.

O‘zbek tilida mehnat qurollari nomlari asosan *-a*, *-ma*, *-g‘ich* (*-kich*, *-gich*, *-qich*), *-ki* (*-gi*), *-oq*, *-ov*, *-chik*, *-ak*, *-chi*, *-ik* (*-iq*) qo‘shimchalarini qo‘shish orqali, ya‘ni affiksasiya usulida hosil bo‘lgan. So‘z yasovchi qo‘shimchalar so‘z yasashda ishtirokiga ko‘ra uch xil bo‘ladi:

1. Unumli qo‘shimchalar. Ko‘plab yangi so‘zlar yasash uchun ishtirok etadigan: *-chi*, *-ma*, *-gi*, *-ki*, *-g‘ich*, *-gich* (*-qich*) unumli qo‘shimchalardir;

